



Air India SATS kompaniyasi bilan hamkorlik




Uzbekistan Airways va Air India SATS kompaniyasi o'zaro hamkorlik to'g'risida shartnoma tuzdilar. 2023-yil 20-dekabrda boshlab aviakompaniyaning Dehli'dagi vakolatxonasi Uzbekistan Airways havo kemalariga tijorat va yer usti xizmatlash uchun Air India SATS kompaniyasiga o'tdi.

Image not found or type unknown



Dehli aeroportida Air India SATS Airport Services Private Limited vakillari HY423/424 qatnovlarini tantanali ravishda kutib olishdi va ikki kompaniya o'rtasidagi biznes hamkorlikning boshlanishi belgilab bergan tortni kesishdi.


Image not found or type unknown



Tadbirda Toshkent – Dehli – Toshkent qatnovi Hindiston va mintaqadan kelgan yo‘lovchilar orasida mashhurligi, Air India SATS kafolatlaydigan aeroportda sifatli va o‘z vaqtida yer usti xizmati Uzbekistan Airways aviaqatnovlarini kechikishlarsiz, parvozlarni jadvalidan chetga chiqmasdan amalga oshirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Uzbekistan Airways haftasiga olti marta Toshkent – Dehli – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha parvozlarni amalga oshirib kelmoqda.

Image not found or type unknown



Ma'lumot uchun:

2023-yil 29-noyabr kuni Air India SATS Airport Services Private Limited (AISATS), Hindistondagi aeroport xizmatlarini boshqarish bo'yicha Milliy yetakchi kompaniya, GHI Pride of Ground Handling Awards mukofotida "Eng yaxshi bekat" mukofotiga sazovor bo'ldi. Ushbu faxriy mukofot AISATS kompaniyasining ishda mukammallikka, innovatsion amaliyotlarga va xalqaro miqyosda mijozlar ehtiyojini qondirishga sodiqligini tan olishdir.

GHI Pride of Ground Handling Awards mukofoti aviatsiya sohasida yer usti xizmatlari sohasidagi ulkan yutuqlari va hissalarini uchun katta hurmatga sazovor.